TA’LIM OLISH, TA’LIM BERISH – INSON KAPITALI.

Hilola Nadirova
Siddikov Mexroj
Jizzax Sambhram universiteti

“Agar o’g’il bolaga ta’lim bersangiz, shaxsga ta’lim bergan bo’lasiz, agar qiz bolaga ta’lim bersangiz, butun ummatga ta’lim bergan bo’lasiz.” Abdulhamid ibn Bodis so’zidan.

O’qitish jarayonimizda juda katta axborot olamiga kirib keldik va kimki bunda tashabbuskor bo’lsa marra uniki. Ko’p bilgan kishi, kam qurqadi. Xaqimizda juda ham naql ko’p masalan, “Bir yillik rohat uchun, urug’ sep,10 yillik rohat uchun, daraxt ek, bir umrlik rohat uchun, esa ilm ol. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Maktab inson resurslarini rivojlantirishning poydevori, yoshlarda bilim, dunyoqarash va ma’naviyat asoslarini shakllantiruvchi asosiy maskan ekani va “inson kapitali”ga sarmoya kiritishni ko’paytirish davr talabi” ekanligi xaqida alohida ta’kidladi. Bugungi kunda “Inson kapitali” insoniyatning, har bir davlatning taqdirini belgilaydigan mezonga aylandi.

Hozir axborot texnologiyalaridan tezkor sur’atlarda foydalanish davri. Olimlar yaqin 7-15 yilda bu davrning tugashini bashorat qilgandi, ammo buni alohida ta’kidlash kerakki zamon bilan hamnafaslikda ta’lim rivojlanmoqda davr talabi. Ayni vaqt ta’lim bilan birga, tsivilizatsiyaning uchinchi bosqichi umummadaniy yoki intellektual-ma’naviy bosqich bo’lishi mumkin. Inson kapitali bu-millatning birlashgan imkoniyatlari yig’indisi hisoblanadi. Tabiiy resurslar, iqtisodiyotning sanoat va agrar sektorlari, oltin, valyuta zaxirasi va boshqalar milliy boylikning doimiy kamayib boruvchi qismiga aylanadi. Ba’zi ekspertlarning fikricha, ular 2020 yilga kelib, rivojlangan mamlakatlar milliy boyligining 10 foiziga ham tenglasholmaydi. Boshqacha aytganda, intellektual-ma’naviy omil mamlakat iqtisodiyotining hal qiluvchi sharti bo’lib, davlat qudratining eng muhim ko’rsatkichi va jamiyatning rivojlanganlik darajasini belgilaydi. O’zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga ko’tarish uchun ulkan qudrat, katta salohiyat kerak. Bu kuch nimada? Yer osti va yer usti boyliklaridami? Armiyadami? Aholi sonidami? Hududdami?.. Yo’q! Xalqida, aholining sifat darajasida. Mana shu yerda bir misol keltiraman “Men faqat Vatanim oldidagi burchimni bajardim ” mavzusidagi maqolada “Ko’pchilik mendan Singapurning rivojlangani haqida so’rab,shunday savol berishardi; “ Qanday qilib ulkan davlatdan ajralib chiqib, mittigina hudud bilan rivojlangan davlatga aylandinglar? Bu mo’’jizani qanday amalga oshirdingiz?- deb savol beradi va shunda u, Davlat buyujetini ta’limga yo’naltirdim, Muallimni quyi tabaqadan Singapurdagi eng yuqori martabaaga ko’tardim, davlatimdagi mo’’jizalarni qilgan insonlar-muallimlardir” degan ekan.

Ya’ni har bir odamning nimalarnidir bilishida, nimalarni qanday o’quv va malaka bilan bajara olishidadir. Bilim hech bir boylikka sotib olinmaydigan, faqat o’rganish,

intilish orqasidan keladigan katta xazina. Axborot va texnika asrida ta’lim, ilm-fan taraqqiyoti yanada katta qiymat kasb etmoqda. Bilimli va malakali mutaxassisning O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2018 yil 17 iyul kuni umumiy o’rta ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish masalalariga bag’ishlangan yig’ilishdagi ma’ruzasi kuchiga bo’lgan talab yanada ortmoqda. CHunki dunyo mamlakatlari o’rtasidagi iqtisodiy, ilmiy-texnologik yangiliklarni ilm salohiyati ya’ni bilimli va malakali insonlar yaratadi. Ayni paytda har qanday yangilik va ixtirodan inson manfaatlari, mamlakat taraqqiyoti yo’lida foydalanmoq kerak. Aks holda u inqirozga olib borishi hech gap emas. Bu borada qadriyatlar muhim o’rin tutadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar nafaqat shaxs shakllanishiga, balki jamiyatda zamonaviy ta’lim sifatiga, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko’rsatadi.

Mamlakatimizda nafaqat yosh avlodning bilim olishi, kasb-hunar o’rganib malaka orttirishi, jahon taraqqiyoti bilan hamqadam bo’la olishi barobarida inson kapitalini rivojlantirish uchun keng imkoniyat va shart-sharoitlar yaratildi. Yuksak zakovat, chuqur bilimli iqtidor egalarini tayyorlashda, tabiiyki, ta’lim qadriyati oldingi o’ringa chiqadi. Jamiyat esa o’z rivojining har bir bosqichida ta’lim oldiga aniq maqsadlarni qo’yadi va ma’lum bir vazifalarni yuklaydi. SHunga muvofiq ta’lim jarayonini tashkil etish va uning mazmuniga, ta’limdagi yakuniy natijaga

nisbatan talablar qo'yadi. Boshqacha aytganda, davlat va jamiyat ta'limga nisbatan ma'lum bir siyosatni olib borib, jamiyatda ishlab chiqilgan qadriyatlarga muvofiq yosh avlodni shakllantiradi. Ta'lim olish va mustaqil o'rganish jarayonida malaka, bilim ortib boradi.

Insonning o'ziga xosligi irsiy qobiliyatlar asosida tarbiyalash va ayni paytda o'z-o'zini rivojlantirish jarayonlarida shakllanadi. Ta'limda o'ziga xoslikni hisobga olish har bir shaxsning imkon qadar yuqori rivojlanish imkoniyatlarini ochish, psixologik o'ziga xosligining betakror va bebaholigini tan olishdan kelib chiqqan holda rivojlanish shart-sharoitlarini yaratishni bildiradi. Ta'limga individual yondashuv bir odamni boshqalar bilan emas, aynan o'sha shaxsning o'z hayot yo'lining turli bosqichlaridagi holatiga qiyoslash talab qilinadi. O'ziga xoslikni namoyon etish, uning tiklanishi va rivojlanishi uchun oqilona shart-sharoit yaratish ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Ta'limning gumanitar tamoyillariga asosan bolani bir paytning o'zida ham tarbiya obekti, ham subekti deb tasdiqlash noto'g'ri bo'ladi. Bola o'ziga ta'lim subekti sifatida qarashi mumkin. Ta'lim obekti esa faqat ta'lim materiali bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytish joizki, jamiyat o'z a'zolari o'rtasida birgalikda harakatlanish, hamkorlik, bag'rikenglik, o'zaro yordamga asoslangan yangi munosabatlarga muhtoj. Ijtimoiy munosabatlarning bu qadriyatlari ta'lim jarayonida o'z ifodasini topishi zarur.O'qituvchi bolalarga nisbatan mehr va ishonch bilan yondashsa, o'quvchilar esa o'z qobiliyat hamda qiziqishlarini amalda qo'llashga imkon bersa, bir-birini tushunishga erishiladi.

Adabiyotlar

1 Saliyeva, N. (2021). THE ROLE OF RAISING THE POLITICAL CULTURE OF YOUTH IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN. In ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ (pp. 59-62).

2 Nadirova-Kazan, H. (2023, November). EXPLORING THE CONTENT OF MEDIA LITERACY: A COMPREHENSIVE REVIEW. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 107-110).

3 Nadirova-Kazan, H. (2023, November). THE IMPACT OF MEDIA LITERACY ON THE DEVELOPMENT OF SPEECH SKILLS: A COMPREHENSIVE ANALYSIS. In Next Scientists Conferences (pp. 22-25).

4 САЛИЕВА, Н. Э. (2022). СПЕЦИФИКА ПАРАДИГМАЛЬНОГО ПОДХОДА К ИЗУЧЕНИЮ ВЛИЯНИЯ ИНФОРМАТИЗИРОВАННОГО ОБЩЕСТВА НА ИДЕОСФЕРУ МОЛОДЕЖИ. ВОПРОСЫ ПОЛИТОЛОГИИ Учредители: ООО" Издательство" Наука сегодня", 12(9), 2887-2894.

5 Sharipov Sanjar. Vocational orientation through the development of mathematical competences in the students of technical higher education institutions. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. 3. No. 06 (2022). 58-64. https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-06-10

6 Jumanazarov, U. U. (2018). METHODS OF TEACH ENGLISH IDIOMS. In International scientific review of the problems and prospects of modern science and education (pp. 70-71).